

YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLARNING PSIXOLOGIK O‘RNI VA AHAMIYATI

Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası
o’qituvchisi Shukurova Iminur Baxtiyorjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
“Musiqá ta’limi” yo’nalishi 1-bosqich talabasi
Mamirjonova Mohlaroyim Sherzodbek qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlar, ularning psixologik o‘rni va ahamiyati, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida amaliyotga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Imkoniyat, psixologik o‘rni, qo‘llab-quvvatlash, islohot, e‘tibor, ahamiyat, imtiyoz.

Biz o‘z tariximizga bir nazar solsak, qanchadan qancha buyuk ishlar boshida To‘maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiya kabi ayollar turganiga guvoh bo‘lamiz. Ular o‘z jasorati, aql-idroki va mardligi bilan tarixga o‘z ismlarini muhrlab qo‘ygan. Shunday siymolar davomchilari ekanligimizning o‘ziyoq bugungi kun xotin-qizlarga g‘urur va sharaf tuyg‘ularini his qilishga sabab bo‘la oladi. Yurtimiz mustaqillikka erishgach, xotin-qizlarning har sohada ijtimoiy-siyosiy faolligiga bo‘lgan e‘tibor yuksaldi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun kerakli bo‘lgan shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, mamlakatimizda prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan chiqarilayotgan qonun va qarorlar, xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, xotin-qizlarning ta‘lim va kasbiy ko‘nikmalar olish, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizarni aniqlash va ularning qobiliyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, hududlarda ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, xotin-qizlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta‘minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa xotin-qizlarga qanchalik e‘tibor berilayotganining yorqin namunasi hisoblanadi.

Xotin-qizlarni bugungi kunda oliy ma'lumotli qilish, qolaversa ularni ta'lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berish maqsadida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlab o'tish joiz. 2021-2022-o'quv yili uchun xotin-qizlarga ajratilgan 4 foizli davlat granti uchun respublika bo'yicha jami 940 ta joy ajratilgani ham buning yaqqol misolidir.

O'zbekiston Adliya vazirligi qonunchilikda ayollarga bir necha imtiyoz va yengilliklar ko'rsatib o'tganligini hozirgi kunda yurtimizda xotin-qizlarga berilayotgan katta e'tibor sifatida e'tirof etishimiz mumkin. Xususan, xotin-qizlarga tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun 33 million so'mgacha kreditlar ajratilayotganligi, ayollarni pensiya yoshiga to'lgani sababli ish beruvchi tashabbusi bilan ishdan bo'shatish taqiqlanayotganligi, ayrim toifadagi xotin-qizlarga OTM ga kirish uchun tavsiyanoma berilayotganligi, "Ayollar daftari"ga kiritilganlarga 5 million so'mgacha kreditlar naqd berilishi mumkinligi, ishlaydigan onalarga bolani ovqatlantirishga tanaffus berilayotganligi, xotin-qizlarning kasb o'rganishga qilgan xarajatlarini davlat to'lab berayotganligi, "Ayollar daftari"ga kiritilayotgan yolg'iz ayollarning farzandlari ham maktabgacha ta'lim muassasasiga imtiyozli ro'yhat asosida qabul qilinayotganligi, og'ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga imtiyozli uy-joylar berilayotganligi, faol va tashabbuskor xotin-qizlar "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlanishi, 12 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga qo'shimcha ta'til berilayotgani, ayrim xotin-qizlarning kontrakt puli davlat tomonidan to'lab berilayotganligi, 2 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar yengilroq ishga o'tkazilishi, homilador ayollar, 3 yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarni ishga qabul qilishda dastlabki sinov qo'llanilmasligi, rahbarlik lavozimiga tanlovda xotin-qizlar va erkaklarning teng ishtiroki ta'minlanishi, ayrim ayollar 53 yoshda nafaqaga chiqishi mumkinligi, 5 yil stajiga ega xotin-qizlar tavsiyanoma asosida o'qishga qabul qilinayotgani, xotin-qizlarga 7 yilga foizsiz ta'lim krediti berilayotgani, nogironligi bo'lgan xotin-qizlarni ishga olganlarga subsidiya berilayotgani, xotin-qizlar va bolalar huquqlarini himoya qilishda javobgarliklar kuchaytirilayotganligi buning isbotidir.

Mazkur imkoniyatlar zamirida oila institutini yanada mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ayollarning jamiyat hayotidagi nufuzini, faolligini oshirish, mehnatini munosib rag'batlantirish, tashkilotchilik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik qobiliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar ko'lamini kengaytirish masalalari o'rin olgan.

Shu boisdan e'tirof etish joizki, biz pedagoglarning asosiy vazifalari xotin-qizlarga jamiyatda o'z o'rnini topishlari, berilayotgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishlari uchun qo'limizdan kelgancha ijtimoiy, pedagogik va psixologik

yondashgan holda yordam berishdan iborat. Chunki, biz nafaqat hozirgi hayotimizga, aksincha tarixga ham nazar tashlaydigan bo'lsak insoniyat taraqqiyotiga unutilmas va beqiyos hissasini qo'shgan buyuk ajdodlarimizni dunyoga keltirib, mehr bilan tarbiyalagan, ularni ulug'vor ishlarga ruhlantirib, kamarbasta bo'lgan oqila, fozila, dono ayollarimiz, onalarimizni ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki har qanday davlat va jamiyatning qay darajada xalqparvar hamda adolatli davlat, jamiyat va xalq ekanligini, uning ayollariga xotin-qizlariga bo'lgan munosabati va g'amxo'rliqi bilan belgilandi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeini yanada mustahamlash-islohotlarimizning eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir..." –deb ta'kidlaydilar. Shu xususidakim, Xotin-qizlarimizning davlat va jamiyatimizning yuksalishi va uning boshqaruvidagi rolini kuchaytirishimiz tufayli ularning jamiyatdagi tutgan o'rni yuksalishiga mazkur so'zlar o'z kuchini beradi. Buning yaqqol namunasi sifatida ayollarimizning dunyo olimpiadalarida yutuqlari; sportchi ayol, eng bilimdon ayol, xalq a'lochisi, direktor, mo'tabar ayol, olim, adiba, tadbirkor ayollarimiz va siyosiy hayotda esa senator ayol, deputat vazir, rahbar ayollarimizning soni oshib borishidir. Xotin-qizlarga berilayotgan "Zulfiya" nomidagi davlat mukofoti va boshqa bir qator unvonlar har bir o'zbek ayolini psixologik jihatdan ruhlantirdi va yanada yuksak marralarga erishishlariga yordam beradi.

O'nlab opa-singillarimiz "O'zbekiston Qahramoni", "O'zbekiston fan arbobi", "O'zbekiston xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston xalq shoiri", "O'zbekiston xalq artisti" singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo'lgan. Ularning orasida qanchadan qancha fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o'z bilimi, iste'dodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo'lida astoydil xizmat qilib kelmoqda. Jamiyat va davlat hayotida faollik, tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlarga beriladigan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Aytib o'tilgan yutuqlarga ayollar osonlik bilan erishayotganlari yo'q. Bir vaqtning o'zida oila ishlarini saranjomlash bilan birga ijtimoiy-siyosiy masalalarga ham vaqt topish, nafaqat vaqt topish, balki o'zlariga yuklatilgan vazifalarni ado etish, tom ma'noda, ijtimoiy-siyosiy masalalarda o'z maqomiga ega bo'lish, ulardan erkaklarga nisbatan ikki barobar ko'proq kuch-quvvat sarflashni talab qilmoqda.

Ayollarning jamiyatdagi o'rni va rolini oshirish, davlat boshqaruviga ularni yanada kengroq jalb qilish, mamlakatning siyosiy boshqaruvi sohasida ularning faolligini yanada oshirish vazifalari keng ahamiyat kasb etib bormoqda. XXI asrda dunyoning barcha mamlakatlarida ayollar siyosat bobida ham teng huquqlilikka erishmoqda, parlamentda salmoqli o'rinlarni egallamoqda.

Ayol qadrini qanchalik yuqoriga ko'tarishga muyassar bo'lsak, milliy g'ururimiz, ma'naviyat va madaniyatimiz yanada yuksalishi, oilalarimiz barqarorligi ta'minlanishi, halol va pok, fidoyi, vatanparvar, jamiyatga foyda keltiruvchi, millatimizni butun jahon miqyosida ko'z-ko'z qildiruvchi farzandlarimiz soni kundan kunga ko'paya borishi tabiiy holdir. Zero, har tomonlama faol va oqila, dono, izlanuvchan, zamonaviy ayol mehnatidan, salohiyatidan nafaqat uning oilasi, balki butun jamiyat manfaatdor bo'lishi chin haqiqatdir. Biz qurayotgan jamiyatning og'ir yukini dadil ko'tarib, uning poydevorini mustahkamlab turadigan asosiy kuch jamiyatimizdagi har bir oila, har bir inson, har bir fuqaro, shu jumladan, xotin-qizlar ekanligini unutmashimiz kerak.

Mamlakatimizda ayollar o'z iqtidorlarini namoyon qilish qobiliyatiga yarasha ishlashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ana shu imkoniyatlardan foydalanish darajasi esa ayollarga bog'liq. Agar ayol o'zini nafaqat ayol sifatida, jamiyatdagi o'z o'rni va mavqeyini anglasa, unga tabiat ato etgan qobiliyatni to'g'ri yo'naltira olsa, faqat oila qurishni emas, balki halol mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishi lozimligini hayotining maqsadi deb bilsa, bu ayol, albatta, o'z hayotidan qanoatlana oladi. Agarki faqat oilani hayotining asosiy maqsadi qilsa, pirovard natijada namoyon qilinmagan qobiliyat, foydalanilmagan imkoniyat, erishilmagan yutuqlar u uchun armon bo'lib qoladi va qalbida barcha narsaga erisha olgan ayollarga nisbatan hasad tuyg'usi shakllanadi. Bu, o'z navbatida, uning g'azabnok bo'lishiga olib keladi. Shunisi quvonarliki, so'nggi yigirma yilda o'z maqsadini aniq bilgan, oila bekasi, farzandlarining onasi bo'lish bilan bir qatorda jamiyat taraqqiyotining turli sohalarida kasbi orqali kamolotga erishayotgan ayollarning soni orib bormoqda. Yurtimizda barcha uchun "Teng imkoniyat va teng huquqlar belgilangan", shu bois maosh olish, ishga kirish, ma'lum sohada muayyan yutuqlarga erishish xoh erkak, xoh ayol bo'lsin, bu insonning maqsadli faoliyatiga bog'liq.

Ayolning har qanday ishga mas'uliyati ikki karra kuchli. Qayerda bo'lmasin, ta'lim tizimimi, sog'liqni saqlash yoki transport sohasimi, ayol o'z vazifasini ortig'i bilan bajara oladi. Biroq ba'zi sohalarida, to'g'rirog'i, ayollarni rahbar lavozimiga tayinlashda ularga nisbatan ishonchsizlik ustuvorlik qiladi.

Bundan tashqari, navqiron yoshlarimizni, ayniqsa, qizlarimizni sog'lom va yetuk etib tarbiyalash, ularning qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish, Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida kamol toptirish ishlari bundan buyon ham davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markazida bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtda xonadonlarimizning fayzu farishtasi bo'lgan, farzandlarimizni barkamol insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan ayollarimiz barcha islohotlarimizda faol ishtirok etmoqdalar. Bu, o'z navbatida, hurmatli onalarimiz, opa-singillarimizga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining uzviy qismi bo'lib kelayotganining yorqin dalolatidir.

Jamiyatning demokratik o'zgarishlar yo'lidan nechog'lik ilgari lab ketgani – shu jamiyatning ayollarga munosabati, bu boradagi madaniy-ma'naviy saviyasi bilan belgilanadi. Zero, oqila, go'zal ayollar o'zlarining g'amxo'rliqi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oilalardagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: «O'zbekiston», 2018. –508-b.
2. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021. (Мирзиёев Ш.М. Новая стратегия Узбекистана. - Ташкент: Издательство «Узбекистан»)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida” PF-4947-son Farmoni. –Toshkent: Adolat, 2018. (Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан». - Ташкент: Правосудие)
4. Adair D.J. Psixologiya vlasti // Kontsepsiya neprerekaemogo liderstva. – M.: EKSMO, 2004. (Адэр Д.Дж. Психология власти // Концепция непререкаемого лидерства. - М.: ЭКСМО)
5. Alimova D. O'zbekiston ijtimoiy fanlarda xotin-qizlar muammolarining o'rganilishi va vazifalari // O'zbekistonda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning roli va gender muammolari. – Toshkent: Fan, T.: 1999.
6. Shukurova, I. (2023). CHILDREN WITH DEVIANT BEHAVIOR. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(12), 274-279.
7. Shukurova, I. (2024). PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT OF SOCIAL INTELLIGENCE IN ADOLESCENCE. *Multidisciplinary and Multidimensional Journal*, 3(1), 65-69.